



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 18-mart

126-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-fevraldagi 131-son qarori ijrosi haqida”gi 120-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer qa’ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF-79-son Farmoni, “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PQ-187-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-fevraldagi 131-son qarori hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 13-martdagi 120-6-0-Q/25-son qarorini tumanda ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-fevraldagi 131-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 120-6-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:
shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq:

a) foydali qazilmalarni qazib olish uchun foydalanishga berilgan yer qa’ri uchastkalarida yer qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan barcha marksheyderlik o‘lchovlari, ularni rasmiylashtirish va hisobotlarda aks ettirish yagona shartli koordinatalar tizimi - 1984 yilgi xalqaro geodezik tizim (WGS-84) asosida amalga oshiriladi;

b) yer qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan marksheyderlik o‘lchovlari asosida haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmi to‘g‘risidagi hisobotlar quyidagi talablarga rioya etilgan holda topshiriladi:

birlamchi hujjatlarning (hisob-kitoblar, o'lovchilarning ko'rsatkichlari va boshqa zarur ma'lumotlar) elektron nusxalari soliq to'lovchilarning axborot tizimidagi shaxsiy kabinetiga kiritiladi;

shaxsiy kabinetga kiritilgan ma'lumotlar xabardor qilish tartibi asosida faoliyat yuritayotgan marksheyderlik tashkilotlari hamda yer qa'ridan foydalanuvchilar

tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi;

tasdiqlangan ma'lumotlar Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi hamda soliq organlariga yer qa'ridan foydalanuvchilarning shaxsiy kabineti orqali avtomatik tarzda har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 20-sanasiga qadar taqdim etilishi;

bunda haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmi to'g'risidagi hisobotlarda aks ettiriladigan ma'lumotlarning haqqoniyligi tasdiqlanmagan taqdirda, yer qa'ridan foydalanuvchilar bilan birga marksheyderlik o'lovchilarini bajargan subyektlarga (tashkilotlarga) nisbatan qonunchilik hujjatlarida belgilangan javobgarlik choralari ko'rilishi; belgilanishicha:

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasining (keyingi o'rinlarda - Inspeksiya) faoliyatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha nazoratni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslari tegishliligi bo'yicha nazorat ostidagi obyektlarga biriktiriladi;

Inspeksiyaning nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarining mehnat sharoitlari bo'yicha belgilangan kafolatlar va imtiyozlar tegishli ish o'rinlari bo'yicha mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi bo'yicha o'tkazilgan attestatsiya natijalari asosida belgilanadi;

Inspeksiyaning Olmaliq va Qizilqum kon-texnika inspeksiyalarining boshqaruv xodimlari soni sanoat xavfsizligi sohasining tegishli yo'nalishlariga muvofiq "Navoiy KMK" AJ va "Olmaliq KMK" AJ bilan kelishilgan holda belgilanadi, shuningdek, ushbu inspeksiyalarning moliyalashtirilishi va moddiy-texnik jihatdan ta'minlanishi tegishli "Navoiy KMK" AJ va "Olmaliq KMK" AJ tomonidan amalga oshirilishi;

quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi to'g'risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasining Harbiylashtirilgan kon-qutqaruv qismi to'g'risida nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarini hududlardagi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga tegishli bo'sh turgan ma'muriy binolarga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul joylashtirilishini ta'minlashi;

Vazirlar Mahkamasining "Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organi xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 25-fevraldagi 88-son qaroriga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishli tuman hokimining o'rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi
Tuman hokimi



A.Mansurov
A.Mansurov